



XOFIZ TANISH BUXORIYNING "SHARAFNOMAYI SHOHIY" ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING ETNIK KELIB CHIQISH TAHLILI

Berdimuratova Dilnoza Rahmatullayevna
Osiyo texnologiyalar universiteti 1-kurs magistranti
QDTU Nuriston akademik litseyi o'qituvchisi,
dilnoza1.04.1987@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20423876>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVI asrning buyuk tarixchi va adib Xofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» («Sharafnomai shohiy») nomli tarixiy-badiiy asarida uchraydigan shaxs nomlari — antroponimlar — etnik kelib chiqishiga ko'ra tahlil qilinadi va tasniflashtiriladi. Tadqiqotda turkiy, forsiy-tojik, arab, mo'g'ul va slavyan-rus guruhlarga mansub antroponimlar miqdoran va sifat jihatdan o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, asardagi antroponimik landshaft Shayboniylar davri ko'p etnikli siyosiy muhitini to'liq aks ettiradi va Markaziy Osiyo onomastikasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. **Kalit so'zlar:** Abdullanoma, Xofiz Tanish Buxoriy, antroponim, etnonim, onomastika, Shayboniylar, o'zbek tilshunosligi, nom tasnifi.

Abstract. This article analyzes and classifies personal names — anthroponyms — found in the historical and literary work "Abdullanama" ("Sharaf-nama-yi Shahi") by the great 16th-century historian and writer Hafiz Tanish Bukhari, according to their ethnic origin. The study examines anthroponyms belonging to Turkic, Persian-Tajik, Arabic, Mongolian, and Slavic-Russian groups, both quantitatively and qualitatively. The results demonstrate that the anthroponymic landscape of the work fully reflects the multi-ethnic political environment of the Shaybanid era and serves as an important source for the study of Central Asian onomastics.

Keywords: Abdullanama, Hafiz Tanish Bukhari, anthroponym, ethnonym, onomastics, Shaybanids, Uzbek linguistics, name classification.

Аннотация. В данной статье анализируются и классифицируются по этническому происхождению личные имена - антропонимы - встречающиеся в историко-художественном произведении великого историка и писателя XVI века Хафиза Таниша Бухари «Абдулланамэ» («Шараф-нама-йи Шахи»). В исследовании рассматриваются антропонимы, относящиеся к тюркской, персидско-таджикской, арабской, монгольской и славяно-русской группам, как в количественном, так и в качественном отношении. Результаты показывают, что антропонимический ландшафт произведения в полной мере отражает многоэтническую политическую среду эпохи Шейбанидов и служит важным источником для изучения центральноазиатской ономастики.

Ключевые слова: Абдулланамэ, Хафиз Таниш Бухари, антропоним, этноним, ономастика, Шейбаниды, узбекское языкознание, классификация имён.

Kirish. Onomastika - tilshunoslikning kishilarning ismlari, joy nomlari va boshqa o'rin nomlarini o'rganuvchi muhim bir tarmog'idir. Antroponimlar esa - ya'ni insonlarga qo'yiladigan shaxs nomlari - ma'lum bir xalqning madaniyati, dini, tarixi va etnik aloqalari haqidagi bebaho ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

XVI asrda yashab ijod etgan Xofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy O'rta Osiyo tarixnavisligining yirik siymolaridan biridir. Uning «Abdullanoma» (boshqa nomi — «Sharafnomai shohiy») asari Shayboniylar sulolasining, xususan, Abdullaxon II (1557–1598)

davrini batafsil bayon etuvchi monumental tarixiy-badiiy yodgorlikdir. Asar fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, siyosiy tarix, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar va madaniy hayotning boy manzarasini taqdim etadi.

Asar matni yuzlab shaxs nomlarini - amirlar, vazirlar, din peshvolari, sarkardalar, elchilar, shoirlar va oddiy kishilarning ismlarini o'z ichiga oladi. Ushbu nomlar turli xalqlardan chiqqan kishilarni ifodalab, «Abdullanoma»ni antroponimik jihatdan nihoyatda boy manba sifatida belgilaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi: «Abdullanoma» asaridagi antroponimlarni etnik kelib chiqishiga ko'ra tasniflash, har bir guruhning miqdoriy nisbatini aniqlash va ularning lingvistik hamda madaniy ma'nosini tahlil qilishdan iboratdir. Imiy adabiyotlar sharhi. O'zbek onomastikasiga oid ilmiy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng ko'lam kasb etdi. T. Nafasov, A. Hojiyev, S. Karimov kabi olimlar o'zbek onomastikasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Fors-tojik yozma yodgorliklaridagi antroponimlarni o'rganish yo'nalishida esa N. Oxunov va boshqa tadqiqotchilar muhim hissa qo'shgan. «Abdullanoma» matni esa asosan tarixiy-siyosiy va adabiy nuqtayi nazardan o'rganilgan: P. Saidov, R. Muslimov kabi tarixchilar asarning tarixiy qiymati va yozilish sharoitini tahlil qilgan. Biroq asardagi antroponimlarni tizimli onomastik tahlil qilish va ularni etnik guruhlarga ajratish masalasi hali chuqur o'rganilmagan bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan ushbu maqola mavjud bo'shliqni to'ldirish yo'lida qo'yilgan qadam sifatida ahamiyatlidir.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: matn tahlili (asarning fors-tojik tilidagi asli va o'zbek tarjimasini sahifa-sahifa ko'rib chiqish), kartoteka usuli (barcha uchraydigan shaxs nomlarini alohida ro'yxatga olish), etimologik tahlil (nomlarning kelib chiqishini tilshunoslik lug'atlari va manbalari asosida aniqlash) va miqdoriy tasnif (har bir etnik guruh vakillik nisbatini hisoblash).

Tasnif uchun quyidagi mezonlar qo'llanildi: nomning leksik-semantik xususiyati, unga xos morfologik qo'shimchalar, arab, fors yoki turkiy tillar lug'at fondiga mansubligi, shuningdek, nomtarixiy manbalar ko'rsatmalariga asoslanish.

Asrdagi ismlar qadimiy turkiy antroponimik an'anani davom ettiradi. *Turkiy ismlar* ko'pincha laqab sifatida ishlatilgan va asarda shaxsning harbiy qahramonligi yoki xizmatini ifodalovchi funksiya bajargan. Mo'g'ul kelib chiqishli antroponimlar Mo'g'ul istilosining tarixiy merosi sifatida bir qator mo'g'ul kelib chiqishli ismlar «Abdullanoma» matnida saqlanib qolgan. Chingizxon avlodlariga va mo'g'ul harbiy aristokratiyasiga tegishli ismlar bu guruhni tashkil etadi:

Chingiziy an'anadagi ismlar: *Doniyor, Temur («temir»), Baatur («bahodir»ning mo'g'ulcha shakli), O'ljay, Xutulun Burta Quchin, Bo'rtta Quchin, Jo'chixon, Sortoq no'yon, Soroni, Jo'jixon, Chig'atoy* [1] kabi ismlar Chingiziylar davri an'anasini aks ettiradi. Timur va Temur ismi ham aslida mo'g'ul-turkiy leksemaga tegishli bo'lib, «temir» ma'nosini ifodalaydi. Mo'g'ul ismlari aksariyat holda laqab yoki unvon sifatida keladi va sof ism sifatida kam uchraydi.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan, Sibir xonligi harbiy nizolari ham yuz bergan. Shu sababli asar matnida bir necha elchi va harbiy shaxslarning nomlari slavyan-rus fonetik shakliga ega holda keltiriladi. Bu guruh miqdoran eng kichik bo'lsa-da, tarixiy-diplomatik jihatdan o'ta muhimdir. Quyidagi jadval «Abdullanoma»ning o'rganilgan qismlaridagi antroponimlarning taxminiy etnik taqsimotini

ifodalaydi. Raqamlar asosiy matn namunalariga asoslanadi va izlanuvchilar uchun tadqiqot mazmuni ochib beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

«Abdullanoma»dagi antroponimlarning etnik guruhlari bo'yicha taqsimoti **Arabiy ismlar:** *Abdulloh, Muhammad, Ahmad, Umar, Husayn, Nizomiddin, Muhammad Mustafo, Ibrohim Xalillulox, Abubakr, Umar, Usmon (Zunnurayn), Siddiq, Horun, Sulaymon, Sulaymon, Xizr* [2] kabi nomlar - Islomiy an'ana, din peshvolari, sulola ismlari asar tahlili jarayonida ko'rishimiz mumkin. Bunday nomlarning izohiga to'xtaladigan bo'lsak, *Abdullaxon 'Abd + Allāh "Alloh quli" - Bosh hukmdor, Ibrohimxon Ibrāhīm - payg'ambar ismi - Hukmdor, 'Abd + al-Mu'min - "Ishonch egasining quli", Abdulatif 'Abd + al-Laṭīf "Latif - zotning quli" - Shayboniy amiri, Muzaffar Muẓaffar - "G'olib" Harbiy sardor, Mansur Manṣūr - «Yordam berilgan» Lashkar boshlig'i, Nasr Naṣr - "G'alaba" - Amaldor.* [3]

Yuqoridagi arab tilidagi ismlar tahlili shuni ko'rsatadiki, arabiy nomlarining tarkibida «Abd» (qul) birikmasi keng qo'llangan.

Fors-Tojik: *Rustam, Bahrom, Mirzo, Faridun, Sherdil, Isfandiyor* va boshqalar shular jumlasidandir. Fors-tojik tilidagi antraponimlar ma'no va mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, Fors asosi va ma'nosi, jtimoiy qatlami: *Shohmurod shāh + murād - "shoh istagi" Amir, hukmdor, Bahrom Bahrām - qadimiy fors xudosi nomi Harbiy sardor, Parviz parvīz - "g'olib" Saroy vakili, Farhod Farhād - fors epik qahramoni Amaldor, Xusrav Khusraw - «yaxshi shuhrat» Zodagonlar, Mirzo mīrẓā - "amir o'g'li" Unvon-ism* [4] komponentlaridan tashkil topganini ko'rish mumkin. Turkiy *Bahodur, Ulug'bek, Ko'chkun, Arslon, Eltuzar, Harbiy laqablar, tabiat unsurlari, qadimiy an'analari asosida kishi nomlarida o'z aksini izlanishimizda ko'rishimiz mumkin. "Abdullanoma" asaridagi antraponimlarni tahlil qilar ekanmiz gramatik jihatdan qo'shma komponentli etnik ismlarga ham duch kelamiz. Masalan,*

Qulimuhammad - qul - turkiy + Muhammad - arabiy = turkiy-arab, Shohquli - shah - forsiy + qul - turkiy = fors-turkiy, Mirzo Abdulaziz - mīrẓā - forsiy + 'Abd al-'Azīz - arabiy = fors-arab, Arabshoh - 'Arab -arabiy + shah - fors = arab-fors, Temurquli - Temūr - turkiy + qul - turk-turk kabilar shular jumlasidandir.

Muhokama va talqin tahlil natijalari "Sharafnomayi shohiy" asaridagi antroponimik tizimning o'ta murakkab va ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi. Arab ismlarining ustunligi birinchi navbatda islom dinining nom berish an'anasiga chuqur ta'sirini aks ettiradi. O'sha davr kishilari orasida arab madaniyati va ism qo'yish an'analari ustuvor ekanligini ko'rish mumkin. Fors-tojik ismlarining keng tarqalishi esa Buxoro xonligi hamda Samarqand madaniy muhitining forslashgan xarakterini, saroy adabiyoti va devonxona tilining fors-tojik bo'lganini tasdiqlab beradi. Shu bilan birga, *Rustam va Faridun kabi Shohnoma qahramonlari nomlarining ishlatilishi harbiy etika va qahramonlik an'anasiga bo'lgan munosabatni va o'sha davrdagi siyosiy aloqalarning mustahkamligini ko'rish mumkin. ko'rsatadi. Turkiy kelib chiqishli ismlarning ulushni egallashi Shayboniyxonlar davlati bilan bog'liq aloqalarning yorqin ifodasi desak adashmagan bo'lamiz. Bunday antraponimlarni harbiy unvon va laqablar bilan ko'proq kelganini tahlil jarayonida guvoh bo'ldik. Bevosita mo'g'ul nomlarini ham uchratish mumkin. Bu esa nisbatan kam uchrasada, Chingizxoniy bilan ham matkazlshgan aloqalar borligiga ishonch hosil qilish mumkin.*

Fikrlarimiz xulosa qilar ekanmiz, "Sharagnomayi shohiy" asaridagi antroponimlarning etnik tasnifi Xofiz Tanish Buxoriy ijod qilgan davrning etnik, diniy va madaniy rang-barangligini to'liq aks ettiradi. Arab-islom, fors-adabiy va turkiy-harbiy nom berish

an'alarining o'zaro uyung'unlashib kelishi, ko'p etnikli va ko'p madaniyatli xalqimizning boy va takrorlanmas qadimiy manba makoni, va o'lmas tarixiy zamin ekanligini namoyon qiladi. Kelajakda "Abdullanoma" dagi antroponimlarni boshqa XVI asr manbalar – "Boburnoma", "Tarixiy Rashidiy" hamda Alisher Navoiy asarlari onomastikasi bilan qiyosiy tahlil qilish o'zbek tarixiy onomastikasini boyitish uchun xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" 1 jild. Sharq nashriyoti, 1999.
- 2.Xofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" 2 jild. Sharq nashriyoti, 2000.
- 3.S.Qorayev "Toponimika" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006
- 4.A.E.Begmatov, O'zbek ismlar ma'nosi, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
- 5.Axmedova M. Ogahiyning "Riyozi-d-davla" asari onomastikasi. Fil.fan.b.fal.dok. (PhD) disser. avtoref... – Urganch, 2024.

